

**MILLIY O'ZLIGIMZGA QARATILGAN TAHDIDLARNI OLDINI OLISH, YOSHLARNI
VATANPARVARLIK TARBIYASINI SHAKILLANTIRISH.**

Turgunbayev Toxirjon Abdugafurovich

*Farg'onan davlat universiteti, harbiy ta'lim fakulteti,
umumqo'shin tayyorgarlik siki dotsenti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarimizning iymon – e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan, barkamol insonlar etib tarbiyalash va ularda turli ko'rinishdagi "ommaviy madaniyat" va "axborot hurujlar"ga qarshi mafkuraviy immunitetini shakillantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Tahdid, xavfsizlik, barqarorlik, demokratiya, struktura, "ommaviy madaniyat", "axborot hurujlar", globallashuv, or – nomus.

Bugun insoniyat taraqqiyoti turli tahdidlar tas'irida kechmoqda. Insoniyatning xavfsizlik va barqarorlikga rahna solishga, hatto, uning hayotini izdan chiqarishga qaratilgan tahdidlar kundan – kunga kuchayib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli asarida ta'kidlagandek: "afsuski, bu tahdidlarning hammasi ham oldindan ko'ra bilishga hamma vaqt ham muvaffaq bo'linmayapti. Ushbu tahdidlar dunyoning turli buzg'unchi kuchlari tomonidan shunday ustalik bilan tarqatilmoxdaki, u o'zining jozibali ta'sir kuchi orqali ko'plab insonlarni kundan – kunga o'z domiga tortib bormoqda".

Sh.Paxrutdinov o'zining "Tahdid tushunchasi: nazariya va amaliyot" risolasida tahidlarni shartli ravishda bir necha turlarga ajratib ko'rsatadi: iqtisodiy, sotsial, siyosiy, harbiy, tabiiy – iqlimi. Uning fikricha, "tahdid" deganda inson hayotiy faoliyati, umuman, yashashni chigallashtiruvchi hamda aniq tarixiy davr davomida aniq maqsad uchun yo'naltirilgan ijtimoiy strukturani, to'g'rirog'i davlatning siyosiy asosini zaiflashtiruvchi, qolaversa, emirishga qaratilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va nihoyat, umumsayoraviy salbiy omillarning "kirib kelishi" tufayli yuz beruvchi makon va zamon muayan salbiy siyosiy, ijtimoiy va tarixiy vaziyatni tushunish mumkin.

Xalqaro maydonda yuz berayotgan ijtemoiy – siyosiy jarayonga nazar tashlasak, turli siyosiy kuchlar o'zining strategik maqsadlarga intilib, "erkinlik" va "demokratiya" niqobi ostida faol harakat qilmoqda. Bu buzg'unchi kuchlar o'z faoliyatlarini hamon ustalik, silliqlik bilan olib borilmoqdaki, har qanday kishini manfur niyatlarini girdobiga tortish imkoniga ega. Bu kuchlar o'z niyatlarini yo'lida millionlab mablag'larni ayamaydilar, ular yer yuzining istagan niqtasida, istagan xalqni o'zligidan ayirish va o'z ta'sir doirasiga olishni niyat qilib, buning ortida millionlab foyda, daromadni ko'zlab ish yuritmoqdalar.

Insoniyat tarixidan ma'lumki, har bir xalq shakillanishi asnosida uning milliy ma'naviyati, madaniyati ham o'z shakl – shamoyilini topib boradi. Ma'naviyat bobida sharqona va g'arbona qarashlar vujudga keladi. Har bir qutb ma'naviyatning o'ziga xos tomonlari bo'lib, ularning o'zaro nomutonosib tomonlari ham mavjud. Sharq ma'naviyati kabi g'arb ma'naviyatining ham boy imkoniyatlari, fazilatlari bugungi g'arb dunyosi ma'naviy olamini boyitib kelmoqda. Ular bu qadriyatlarning tarixini, ma'zmun - mohiyatini hech qachon xolis tushuntirmaydi, aksincha, ularning ma'nosini va falsafani o'z g'arazli madsadlariga moslab, soztalashtirib joriy etishga harakat qiladi. Ular o'z g'arazli maqsadlarini "erkinlik", "demokratiya" singari chiroqli so'zlar bilan bezab, o'rnab – chirmab, dunyo xalqlari turmush tarziga kiritishga zo'r berib urinmoqdalar.

"Hozirgi vaqtida axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni

mesimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli balo – qazodek tarqalib borayotgan bunday hurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda".

Hozirgi zamon madaniyatshunosligida e'tirof etilishicha, ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarishning muayan turi bo'lgan "ommaviy madaniyat", "o'rtacha" istemolchiga mo'ljallangan bo'lib, tijorat, moddiy foyda ko'rish maqsadida original ma'naviy mahsulotni ko'paytirish va tarqatish imkoniyatlarini anglatadi. Ommaviy estetik madaniyatning muhim tomoni shundaki, u yosh, ijtimoiy va milliy toifasi jihatidan o'z iste'molchilarinin aniq belgilab oladi, shunga mos badiiy – estetik usullar va qadriyatlar tanlaydi, moddiy manfaat yo'lida turli vositalarni ishga solidi.

Ommaviy madaniyat asli kelib chiqishi jihatidan xalq madaniyati, folklori bilan bog'langan bo'lib, chuqur ijtimoiy va ma'naviy ildizlarga egadir. Uning paydo bo'lishi va rivojlanishda sanoat ishlab chiqarish, xususan radio, televidenie, video, kompyuterlar muhim rol o'ynagan. Lekin globallashuv jarayonida uning ijobiy emas, balki ma'naviy tahdidlarga bo'ysinuvchi jihatlari asosiy o'rin tuta boshladи.

"Bizning ulug' ajdodlarimiz o'z davrida komil inson haqida butun bir ahloqiy mazonlar majmuuni, zamonaviy tilda aytganda, sharqona ahloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o'rini deb bilaman. Ota – bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or – nomus, uyt va andisha, sharmu – hayo, ibo va iffat kabi yuksak ahloqiy tuyg'u va tushunchalar bu kodeksning asosiy ma'no – mazmunini tashkil etadi, desak, o'ylaymanki, hato qilmagan bo'lamiz".

Xulosa qilib aytish mumkinki, xalqimiz, avvalombor yoshlarimizning iymon – e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash, ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota – bobolarning muqaddas qadtiyatlarini asrab – avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror topshirishni bugungi kun taqozo etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1.I.A.Karimov. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" Toshkent – 1997 y.

2.Sh.Mirziyev. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari". Toshkent – 2020 y

3.T.Turgunbayev. Harbiy qismlarda vatanparvarlik va ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning uslubiyoti. Darslik 2021 y

4.T.Turgunbayev. Harbiy qismlarda vatanparvarlik va ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning uslubiyoti. Oquv-qo'llanma 2021 y

5.Abdugafurovich, T. T. (2024). ROLE OF FAMILY AND SOCIETY IN MILITARY PATRIOTIC EDUCATION. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 8(8), 164-167.

6.Abdugafurovich, T. T., & Shokhmukhammad, M. (2021). The Role Of Educating Students In The Spirit Of Military Patriotism In Educational Institutions. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(9), 126130.

7.T.Turgunbayev. Муғалим ҳемузликсиз билимленидириў – Нукус, 2021. №3,3. ISSN: 2181-7138. – Б. 102-105.

8.T.Turgunbayev. O'zMU xabarlari 1/3-sontoshkent-2023.ISSN: 2181-7324.- Б 184-186.